

**FONETIK-FONEMATIK KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISHDA
AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI****Seydullayeva Elnora Botirbek qizi***Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti,**Maxsus pedagogika Logopediya yo‘nalishi magistratura talabasi**e-mail: elnor2003seydullayev@gmail.com**+998901211532*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni yoritilgan. An‘anaviy logopedik metodlar bilan bir qatorda zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish jarayonning samaradorligini oshirishi asoslab berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan interaktiv platformalar va mobil ilovalar tahlil qilingan. AKT vositalarining bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va nutqiy faollikni oshirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль информационно-коммуникационных технологий в коррекции фонетико-фонематических нарушений у детей. Обосновывается эффективность использования современных ИКТ наряду с традиционными логопедическими методами. Также анализируются интерактивные платформы и мобильные приложения, применяемые в практике в Узбекистане. Показано значение ИКТ в развитии фонематического слуха, правильного звукопроизношения и речевой активности детей.*

Abstrakt: *This article examines the role of information and communication technologies in the correction of phonetic and phonemic speech disorders in children. The effectiveness of using modern ICT tools alongside traditional speech therapy methods is justified. Interactive platforms and mobile applications used in practice in Uzbekistan are also analyzed. The importance of ICT in developing phonemic hearing, correct pronunciation, and speech activity in children is highlighted.*

Kalit so‘zlar: *fonetik-fonematik kamchiliklar, logopediya, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, AKT, nutq rivojlanishi, interaktiv metodlar, fonematik eshitish*

Ключевые слова: *фонетико-фонематические нарушения, логопедия, информационно-коммуникационные технологии, ИКТ, развитие речи, интерактивные методы*

Keywords: *phonetic-phonemic disorders, speech therapy, information and communication technologies, ICT, speech development, interactive methods, phonemic hearing*

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat samaradorligini oshirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan (AKT) foydalanish logopedik yordamning sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Nutq nuqsonlarini erta aniqlash, ularni samarali bartaraf etish hamda bolani keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlashda an'anaviy logopedik usullar bilan bir qatorda raqamli vositalar, interaktiv dasturlar, multimedia materiallari va masofaviy aloqa texnologiyalaridan foydalanish amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Fonetik-fonematik kamchiliklar bolalarda eng ko'p uchraydigan nutq buzilishlaridan biri bo'lib, ular tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi, o'xshash fonemalarni farqlashdagi qiyinchiliklar, fonematik idrokning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, bolaning og'zaki nutqining to'liq shakllanishiga, savod o'rganish jarayoniga, yozma nutqning rivojlanishiga hamda kommunikativ faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois fonetik-fonematik kamchiliklarni korreksiyalashda nafaqat an'anaviy metodlar, balki bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos, qiziqarli, ko'rgazmali hamda takroriy mashqlarni samarali tashkil etishga imkon beruvchi AKT vositalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar logopedik mashg'ulotlarni interaktiv, vizual va eshituv tayanchlariga boy shaklda tashkil etish, tovush talaffuzini modellashtirish, fonematik eshituvni rivojlantirish, tovushlarni differensiasiya qilish hamda uy sharoitida mustahkamlash ishlarini samarali yo'lga qo'yish imkonini beradi. Shu bilan birga, AKT vositalari bolaning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini oshiradi, korreksion topshiriqlarning ko'p martalik takrorlanishini yengillashtiradi va logoped hamda ota-ona o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. Biroq ushbu texnologiyalar logopedik korreksiya jarayonida mutaxassis faoliyatini to'liq almashtirmaydi, balki uni to'ldiruvchi va samaradorligini oshiruvchi yordamchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolada fonetik-fonematik kamchiliklarning mazmun-mohiyati, ularni bartaraf etish jarayonida qo'llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalarning didaktik va korreksion imkoniyatlari, shuningdek, logopedik amaliyotda AKTdan foydalanishning afzalliklari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Zamonaviy ta'lim tizimida bolalar nutqidagi fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. An'anaviy logopedik yondashuvlar bilan bir qatorda, bugungi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash ushbu jarayon samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganish zarur hisoblanadi. Mazkur muammoning nazariy asoslarini tahlil qilish avvalo fonetik va fonematik kamchiliklarning mohiyatini aniqlashni talab etadi. Fonetik kamchiliklar deganda nutq tovushlarining noto'g'ri talaffuz qilinishi, ularning buzib aytilishi yoki tushirib qoldirilishi tushuniladi. Fonematik kamchiliklar esa tovushlarni eshitish orqali farqlash, ularni tahlil qilish va bir-biridan ajratish qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Bu kamchiliklar turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Jumladan, artikulyatsion apparatning yetarli darajada rivojlanmaganligi, fonematik eshitishning sustligi, markaziy asab tizimi faoliyatidagi ayrim buzilishlar, shuningdek, nutqiy muhitning yetarli emasligi muhim sabablar qatoriga kiradi. Fonetik-fonematik kamchiliklar bolalarning nafaqat og'zaki nutqiga, balki yozma nutqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalarda o'qish va yozish jarayonida tovushlarni almashtirish, tushirib qoldirish, qo'shib yuborish kabi xatolar tez-tez uchraydi. Bu esa o'z navbatida ularning o'quv faoliyati samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shu sababli, fonetik-fonematik kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishda samarali usul hamda vositalardan foydalanish zarur hisoblanadi. An'anaviy logopedik metodlar bilan bir qatorda, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash ushbu jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

An'anaviy logopedik metodlar. Fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etishda an'anaviy logopedik metodlar uzoq yillardan buyon samarali qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu metodlar asosan nutq apparatini rivojlantirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish hamda fonematik eshitishni rivojlantirishga qaratilgan. An'anaviy yondashuvda artikulyatsion gimnastika muhim o'rin tutadi. Bu mashqlar yordamida til, lab, jag' harakatlari rivojlantiriladi va tovushlarni to'g'ri hosil qilish uchun zarur bo'lgan fiziologik baza yaratiladi. Shuningdek, tovushlarni qo'yish va mustahkamlash jarayonida takrorlash mashqlari, bo'g'in va so'zlar ustida ishlash, didaktik o'yinlardan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, fonematik eshitishni rivojlantirish uchun tovushlarni farqlashga oid mashqlar, eshitish orqali tahlil qilish va sintez qilish topshiriqlari qo'llaniladi. Ushbu metodlar bolalarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ayrim holatlarda ularning samaradorligi yetarli darajada yuqori bo'lmasligi mumkin. Xususan, an'anaviy mashg'ulotlar ko'pincha bir xil ko'rinishda tashkil etilishi

natijasida bolalarda qiziqishning pasayishi, diqqatning tez chalg‘ishi kuzatiladi. Shuningdek, har bir bola bilan individual yondashuvni to‘liq ta‘minlash har do im ham imkoni bo‘lmaydi.

Zamonaviy yondashuvlar va AKTning o‘rni. Bugungi kunda ta‘lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish logopedik ishlarning samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. AKT vositalari yordamida nutq kamchiliklarini bartaraf etish jarayoni yanada interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etilishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tovushlarning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatishda animatsion ko‘rsatmalar, video darslar va vizual modellar qo‘llaniladi. Bu esa bolaga artikulyatsion harakatlarni aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Fonematik eshitishni rivojlantirishda esa turli audio mashqlar, tovushlarni ajratish va farqlashga oid interaktiv o‘yinlar samarali natija beradi. AKTning yana bir muhim afzalligi shundaki, u bolalarning motivatsiyasini oshiradi. Rang-barang dizayn, ovoqli effektlar va o‘yin elementlari bolani mashg‘ulotga faol jalb qiladi. Bundan tashqari, texnologiyalar individual yondashuvni ta‘minlash imkonini beradi, ya‘ni har bir bola o‘z tezligi va darajasiga mos tarzda mashqlarni bajarishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlar an‘anaviy metodlarni to‘liq inkor etmaydi, aksincha, ularni samarali to‘ldiradi. Ya‘ni, logopedik ish jarayonida an‘anaviy va zamonaviy usullarni uyg‘unlashtirish eng maqbul natijani beradi.

AKT turlari va ularning logopedik jarayondagi amaliy qo‘llanilishi. Fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etishda turli axborot-kommunikatsion texnologiyalar va maxsus dasturiy vositalardan samarali foydalanish mumkin. Ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratiladi:

Birinchidan, logopedik maxsus dasturlar alohida ahamiyatga ega. Masalan, “Логомер” dasturi bolalarda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va mustahkamlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda turli interaktiv o‘yinlar, artikulyatsion mashqlar va eshitish topshiriqlari mavjud. “Логомер” dasturiy-didaktik kompleksi — an‘anaviy o‘quv qo‘llanmalariga zamonaviy muqobil hisoblanadi. Logopedik mashg‘ulot davomida interaktiv usullar yordamida nutq rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bolalarda leksik baza rivojlantiriladi, shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarda nutqning grammatik tuzilishi ustida ish olib boriladi. Ushbu dastur orqali bola o‘yin jarayonida tovushlarni takrorlaydi va mustahkamlaydi.

Shuningdek, Мерсибо platformasida fonematik eshitishni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab o‘yinlar mavjud. “Мерсибо” — bolalar mutaxassislari hamda ota-onalar bilan bolalar uchun mo‘ljallangan onlayn portal hisoblanadi. Ushbu platformada 2 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun nutqni rivojlantirish, motorika va tafakkurni o‘stirish, shuningdek yozish, o‘qish va sanashni o‘rgatishga qaratilgan o‘yinlar yaratiladi. Bundan tashqari, logopedlar, defektologlar, psixologlar, tarbiyachilar va pedagoglar uchun vebinarlar tashkil etiladi.

Ikkinchidan, mobil ilovalar keng qo‘llanilmoqda. Masalan, Speech Blubs ilovasi bolalarga tovushlarni o‘rganishda video va animatsiyalar orqali yordam beradi. Bola ekrandagi harakatlarni taqlid qilib, tovushlarni osonroq o‘zlashtiradi. Speech Blubs — bu bolalar uchun mo‘ljallangan, obuna asosida ishlaydigan mashhur logopedik ilova dir. Ilova 1–8 yoshdagi bolalarda nutq va til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, video modellashtirish, ovozni tanish (voice recognition) va interaktiv o‘yinlar orqali ishlaydi. U mutaxassislar ishtirokida ishlab chiqilgan bo‘lib, 1500 dan ortiq turli mashqlarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida “erta tovushlar”, “og‘iz gimnastikasi (mouth gym)” va qo‘shiq orqali o‘rganish kabi bo‘limlar mavjud. Mashg‘ulotlar odatda kuniga 5–10 daqiqalik qisqa va samarali seanslar ko‘rinishida tashkil etiladi, bu esa bolada qiziqish va muntazamlikni saqlashga yordam beradi.

Yana bir mashhur ilovalardan biri — Articulation Station bo‘lib, unda har bir tovush bo‘yicha alohida mashqlar, so‘zlar va gaplar bilan ishlash imkoniyati mavjud. Articulation Station Hive — Little Bee Speech kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, obuna asosida ishlaydigan kompleks logopedik ilova bo‘lib, iPad, iPhone va Mac qurilmalari uchun mo‘ljallangan. Ushbu ilova bolalar va kattalarda nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmasini shakllantirish va mustahkamlashga yordam beradi. U avvalgi “Articulation Station” ilovasining o‘rnini bosgan bo‘lib, 22 dan ortiq tovushlarni qamrab oladi va ularni izolyatsiyadan tortib to erkin nutq (conversation) darajasigacha bosqichma-bosqich o‘rgatadi. Ilovada 17 ta turli faoliyat (mashq) mavjud bo‘lib, ular interaktiv o‘yinlar, yozib olish (recording) funksiyasi hamda natijalarni kuzatish (data tracking) imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu esa logopedga bolaning rivojlanishini tizimli nazorat qilish va individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Uchinchidan, multimedia platformalar ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, YouTube orqali artikulyatsion mashqlar, tovush qo‘yish bo‘yicha video darslar, animatsiyalar topish mumkin. Bu videolar bolaga artikulyatsiya jarayonini vizual tarzda tushunishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, taqdimot va interaktiv materiallar yaratish vositalari ham keng qo‘llaniladi. Masalan, Microsoft PowerPoint yoki Wordwall yordamida logoped o‘zi interaktiv o‘yinlar, testlar va mashqlar yaratishi mumkin. Wordwall platformasida tovushlarni ajratish, moslashtirish, tanlash kabi o‘yinlar tayyorlab, bolalar bilan ishlash mumkin.

Beshinchidan, audio yozuv texnologiyalari (telefon diktofoni yoki maxsus ilovalar) orqali bola o‘z nutqini yozib, qayta eshitadi. Bu usul o‘z-o‘zini nazorat qilish va xatolarni anglash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etishdagi o‘rni. Fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar turli shakllarda qo‘llanilib, logopedik jarayonni yanada

samarali tashkil etish imkonini beradi. O‘zbekistonda amaliyotda keng qo‘llaniladigan AKT vositalari oddiy, qulay va mutaxassislar uchun ochiq bo‘lib, ular orqali bolalarning nutqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash mumkin. Birinchi navbatda, YouTube platformasi logopedik amaliyotda keng qo‘llaniladi. Ushbu platformada artikulyatsion gimnastika, tovush qo‘yish va nutqni rivojlantirishga oid videodarslar mavjud bo‘lib, ular bolaga tovushlarni vizual va eshitish orqali o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu esa fonetik ko‘nikmalarning tezroq shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, Telegram platformasi logoped va ota-onalar o‘rtasidagi doimiy aloqani ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu platforma orqali audio va video mashqlar yuborish, uy vazifalarini nazorat qilish hamda individual maslahatlar berish mumkin. Natijada korreksion ish jarayoni uzluksiz davom etadi. Mashg‘ulotlarni qiziqarli va interaktiv qilishda PowerPoint muhim o‘rin tutadi. Ushbu dastur yordamida rasm, animatsiya va tovushlar asosida slaydlar tayyorlanadi, bu esa bolalarda diqqatni jamlash va qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, Wordwall va LearningApps platformalari logopedik mashg‘ulotlarda interaktiv o‘yinlar yaratish imkonini beradi. Ushbu platformalarda tovushlarni farqlash, moslashtirish, tanlash va tahlil qilishga qaratilgan mashqlar mavjud bo‘lib, ular fonematik eshitishni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Oddiy, ammo juda foydali vositalardan biri — telefonning ovoz yozish funksiyasi (diktofon)dir. Bola o‘z nutqini yozib olib, qayta eshitishi orqali xatolarini anglaydi va ularni tuzatishga harakat qiladi. Bu o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, Google Translate ilovasidan ham yordamchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Undagi ovozli talaffuz funksiyasi bolaga so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz modelini eshitish va taqlid qilish imkonini beradi. Ayrim hollarda Kahoot! platformasi orqali interaktiv viktorinalar tashkil etish ham mumkin. Bu esa bolalarda motivatsiya va raqobat hissini oshiradi hamda o‘rganish jarayonini o‘yin shaklida olib borishga yordam beradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda mavjud axborot-kommunikatsion texnologiyalar logopedik amaliyotda keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ular fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etish jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Ushbu vositalar bolalarda nutqiy faollikni oshiradi, motivatsiyani kuchaytiradi va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, fonetik-fonematik kamchiliklarni bartaraf etish logopedik amaliyotning muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda an’anaviy logopedik metodlar bilan bir qatorda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish korreksion ishlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. AKT vositalari yordamida mashg‘ulotlar yanada interaktiv, qiziqarli va bolaga mos tarzda tashkil etiladi. Bu esa bolalarda nutqiy faollikni oshiradi, fonematik eshitishni rivojlantiradi hamda tovushlarni

to‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini tezroq shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, vizual va audio materiallarning uyg‘unligi bolada idrok jarayonini faollashtirib, o‘rganish samaradorligini kuchaytiradi. Shuningdek, AKT vositalaridan tizimli va maqsadli foydalanish bolalarning mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi hamda logopedik jarayonda individual yondashuvni ta‘minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, an‘anaviy va zamonaviy metodlarning uyg‘unligi eng optimal natijaga erishishning muhim omili hisoblanadi. Umuman olganda, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni logopedik amaliyotga keng joriy etish fonetik-fonematik kamchiliklarni samarali bartaraf etish va bolalar nutqini to‘liq rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Levina R. E. Logopediya asoslari — Moskva: Prosveshchenie, 2005.
- Filicheva T. B., Chirkina G. V.
2. Logopediya: Nutq kamchiliklarini bartaraf etish metodikasi — Moskva: Akademiya, 2010.
3. Lalaeva R. I. Fonetik-fonematik nutq buzilishlarini korreksiyalash metodikasi — Sankt-Peterburg: Soyuz, 2004.
4. Volkova L. S. Logopedik ish asoslari — Moskva: Vlados, 2009.
5. Mironova S. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq kamchiliklarini bartaraf etish — Moskva: Prosveshchenie, 2012.
6. Slastenin V. A., Isaev I. F. Pedagogika — Moskva: Akademiya, 2011.
7. Maxsus pedagogika (logopediya) bo‘yicha o‘quv dasturlar to‘plami — Toshkent, 2020.
8. Inklyuziv ta‘lim va maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo‘yicha metodik qo‘llanma — Toshkent, 2021.
9. Wordwall — interaktiv ta‘lim platformasi (rasmiy sayt: wordwall.net)
10. LearningApps — interaktiv mashqlar yaratish platformasi (learningapps.org)
11. YouTube — logopedik video materiallar manbasi